

BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI TAKOMILLASHTIRISH

S.X.Abdullaev NDPI Aniq fanlar kafedrasida professori.

S.J.Jaloliddinova NDPI 3-bosqich Texnologik ta'lim yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini zamonaviy o'qitish texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashga tayyorlashning natijasi sifatida ularda shakllanadigan kasbiy kompetentlik mazmuni, uning tuzilmasi hamda o'quv fanlarini o'rganishdagi imkoniyatlari keltirilgan.

Tayanch so'zlar va iboralar: texnologik ta'lim, texnologik ta'lim o'qituvchisi, kompetentlik, kasbiy kompetentlik.

Аннотация. В статье приведены качества результатов подготовки будущих преподавателей технологического образования в высших учебных заведениях содержания технологической компетенций, ее структура, как результат применения учебного процесса обучающий технологии в качестве одной из технологий современного обучения, а также возможности при изучении учебных дисциплин.

Ключевые слова и определения: технологическое образование, преподаватель технологического образования, компетентность, технологическая компетентность.

Annotation. The article presents the quality of the results of training future teachers of vocational education in higher educational institutions of the content of professional competencies, its structure, as a result of the use of the educational process, teaching technology as one of the technologies of modern education, as well as the possibilities for studying academic disciplines.

Key words and definitions: professional education, teacher of professional education, competence, professional competence.

Bugungi transformatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining yuqori darajadagi bilim va kasbiy ko'nikmalar asosida pedagogik faoliyatni va ishlab chiqarish jarayonini tahlil qila oladigan, yangi nostandart g'oyalarni ilgari sura oladigan, ratsional, zamonaviy talablarga javob beradigan metod va vositalarni, kasbiy va ilmiy axborotlarni o'zlashtirishning yangi usullarini amaliyotda qo'llay oladigan bo'lishlari talab etilmoqda. Shuning uchun texnologiya fani yo'nalishi bo'yicha o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida kompetentlik yondashuvi asosida texnologik ta'lim mazmunini loyihalashtirish muhim ahamiyatga ega va bunda asosiy e'tibor texnologik ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirgan, fundamental hamda kasbiy yo'nalishlarni uyg'unlashtirgan ta'lim mazmunini loyihalashtirishga kompetentlik asosida yondashuvlarni aniqlashtirishga qaratiladi. Shuning uchun ham bugungi kunda mustaqil fikrlovchi erkin shaxs konsepsiyasini amalga oshirish oliy ta'lim muassasalari oldida turgan asosiy vazifalardan bo'lib, bunda ayniqsa

bo'lajak texnologik fani o'qituvchilarini kompetentli yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash muhim omil hisoblanadi [1].

O'qituvchining kasbiy kompetentligi tushunchasi uzoq vaqtlardan buyon pedagoglar, psixologlar, metodistlarning diqqat markazida turgan bo'lsada, ammo, asosan XX asr 80-yillari oxiri va 90-yillari boshlarida paydo bo'lgan. "O'qituvchining kasbiy kompetentligi" tushunchasi mazmunini aniqlashdagi dastlabki nuqtai-nazarlar bo'lib, ensiklopediyalar va ma'lumotnomali manbalarda keltirilgan "kompetentlik", "kompetentli" va "kompetensiya" kabi tushunchalarining umumqabul qilingan talqini hisoblanadi. Qayd etilgan tushunchalarning mazmuni va mohiyatini aniqlashga bo'lgan turli xil yondashuvlarning tahlili kompetentlik o'z ichiga xabardorlik, bilim, qobiliyat, tajriba, to'la huquqlilik kabi bir qator sifatlarni olishini aniqlashga imkon berdi.

Kasbiy kompetentlik o'qituvchining o'zaro bog'langan va o'zaro shartlashilgan nazariy va amaliy tayyorgarligi yaxlitligini namoyon qilib, uning asosini ta'lim jarayoni texnologiyalarini moslashuvchan tarzda egallaganlik, tajriba bilan uyg'unlikdagi shaxsning psixologik-pedagogik axborotli fondi, shuningdek, maxsus yo'naltirilgan ta'lim faoliyatini amalga oshirishga tayyorlik va bunga qobiliyatlilik tashkil etadi.

Kasbiy kompetentlikning tuzilmasi u o'z ichiga jips o'zaro bog'langan axborotli, faoliyatli va texnologik tarkibiy qismlarni oladi. Axborotli tarkibiy qism o'z ichiga o'rganiladigan o'quv fanlariga tegishli bo'lgan umumpedagogik, psixologik bilimlar va boshqa shu kabilardan iborat bo'ladigan bilimlarni oladi. Faoliyatli tarkibiy qism esa o'z ichiga pedagogik faoliyat vazifalarini bajarish uchun zarur bo'ladigan malaka va ko'nikmalarni oladi. Texnologik tarkibiy qism ta'lim jarayonini modellashtirish asosida uni samarali tashkil etish usullarini ko'zda tutadi.

O'qituvchilarning kasbiy kompetentligi pedagogik mehnatning barcha tomonlarida, ya'ni kasbiy faoliyatda, kundalik munosabatlarda, shaxsiyat rivojlanishida, mehnatning majmuiy natijasida namoyon bo'ladi va uning barcha komponentlari shakllanganligini talab etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, oliy talim muassasasi o'qituvchisining eng muhim vazifasi talabalarning kasbiy kompetentliklarini barqarorlashtirish, to'ldirish va uzatish mexanizmlarini boshqarish imkoniyatlarini bosqichma-bosqich tarbiyalash uchun psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratishdan iborat. Shuning uchun hozirgi vaqtda kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasiga katta e'tibor berilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari quyidagilarga yordam beradigan texnologiya sifatida qaraladi: talabalarda ularning bo'lajak kasbiy faoliyatlari uchun ahamiyatli bo'lgan shaxsiy sifatlarni takomillashtirish; oliy ta'lim muassasasini tugatgandan so'ng tanlab olingan kasbiy yo'nalishda funksional vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga yordam beradigan fundamental, fanlararo va maxsus bilimlarni egallash. Oliy ta'lim muassasasi o'quv jarayonida kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarini amalga oshirish quyidagilarni ko'zda tutadi: bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashdagi belgilangan maqsadlarga erishish, talabalarni texnologik ta'lim

mazmunini ongli ravishda o'zlashtirish jarayoniga faol jalb qilish; zaruriy ijtimoiy va bilish motivatsiyasini ta'minlash, kasbiy qadriyatlar tizimini takomillashtirish; bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari sifatida talabalarning shaxsiy rivojlanishi.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda zamonaviy o'qitish texnologiyasini qo'llashni taqozo etmoqda. Ta'lim muassasalari o'quv amaliyotida qo'llanilayotgan kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarini tahlil qilish davomida biz, ta'lim tizimi markazida ta'lim oluvchi shaxsi qaraladigan, uning rivojlanishiga qulay va xavfsiz shart-sharoitlar ta'minlanishi va tabiiy salohiyatlari yuzaga chiqishiga imkon beradigan shaxsga yo'naltirilgan texnologiyaga diqqatni qaratdik. Bu texnologiyada talaba shaxsi nafaqat oddiy, balki ustuvor ta'lim sub'ektiga aylanadi, ya'ni u qandaydir cheklangan (xuddi avtoritar texnologiyadagi kabi) maqsadlarga erishish vositasi bo'lib emas, balki ta'lim tizimining maqsadiga erishish vositasi bo'lib hisoblanadi.

Texnologiya fani o'qituvchilari kasbiy kompetentligining shaxsiy komponenti sifatida pedagogik refleksiyaning ahamiyati muhim hisoblanadi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligiga dinamiklik va baqarorlik xos bo'lib, ular yaxlitlikda va o'zaro aloqadorlikda bo'ladi [2]. Baqarorlik shu haqida guvohlik beradiki, psixologik va pedagogik nazariyada hamda ko'p asrlik ta'lim amaliyotida to'plangan tayanch bilimlar, mahorat va tajribalar talabaga kasbiy kompetentlikning zaruriy darajasini egallashga yordam beradi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, kasbiy kompetentlikni bir tomondan, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi komponenti sifatida, boshqa tomondan esa etarli darajada mustaqil bo'lgan tushuncha sifatida olib qarash mumkin.

Biz esa kasbiy kompetentlikni turli xil ta'lim texnologiyalarini o'qituvchi tomonidan o'quv jarayoniga samarali qo'llashni ta'minlovchi kasbiy-shaxsiy darajadagi yaxlit qurilma deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Abdullaev S.X. O'qituvchilarning ergonomik madaniyatini rivojlantirish muhitini tashkil etish tizimi va texnologiyasi // Zamonaviy ta'lim. Toshkent, 2021. 9-son. B.28- 36

2. Abdullayev S.X. Texnologik ta'lim o'qituvchilarining ergonomik kompetentligini takomillashtirish//OTFIV. Fan ziyosi nasriyoti. Toshkent. 2023. ISBN: 978-9910-744-50-1. B.191.

3. Abdullayev S.X. Ergonomik yondashuv asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisi ergonomik kompetentligini takomillashtirish metodikasi// O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. ISSN: 2181-1458. 2023 yil. 6-son. B. 842-846.

4. Xodjabaev A.R. Kasbiy ta'limda zamonaviy innovatsiyalarning mazmuni va mohiyati // O'zbekiston milliy axborot agentligi (O'zA) – UZA.uz saytining ilm-fan bo'limi (elektron jurnal).

5. Khodjabaev A.R., Daminov O.O. Game technology as the measurement of professional competition for teachers of professional education // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – Great Britain: 2020. Vol.8 №2.Part II. –P. 163-169.

6. Мухитдинова, Ж. Р. (2022). Приоритетные направления развития творческого потенциала молодежи. In Социально-экономическое развитие региона: опыт, проблемы, инновации (pp. 85-89).